



Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil
Yanvar-iyun**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'ortalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi – 63,2 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 2 318,3 ming so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 6 827,7 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi – 66,6 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari - 116,0 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari – 113,5 %

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 827,7 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1 378,2 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6 827,7	116,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	345,8	123,3
Moliyaviy xizmatlar	1 132,9	124,6
Transport xizmatlari	1 168,3	109,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 064,8	108,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	172,7	121,3
Savdo xizmatlari	2 307,4	117,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	188,6	111,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	325,1	112,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	155,2	115,8
Ijara xizmatlari	137,5	120,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	194,4	110,6
Shaxsiy xizmatlar	437,9	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,4	101,6
Boshqa xizmatlar	189,5	116,9


Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyun oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **124,6 %**. Nisbatan past me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **101,6 %**.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **1 168,3** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **109,7 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida ushbu turdag'i xizmatlarning ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – iyun oylarida)



2022- yilning yanvar-iyun oylariida transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **91,1 %** dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyun oylariida ko'rsatilgan xizmatlarning **92,5 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **33,8 %** ni tashkil etib, bu **2 307,4 mldr. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 763,9 mldr. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **32,4 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022-y.
yanvar-iyun 2 307,4
 mldr. so'm



1 763,9
mldr. so'm



Hajmning
o'sishi

117,1 %



108,5 %
2021-y.
yanvar-iyun



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **75,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo ulushi **78,1 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

 **Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-iyun oylarida)

2022- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 132,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **904,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **16,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **16,6 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **228,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **124,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **124,1 %** ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,7 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,7 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **91,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,4 %** ni tashkil etgan .



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-iyun

276,8
mlrd. so'm

107,4%

5,1 %

2022- y.
yanvar-iyun

345,8
mlrd. so'm

123,3 %

5,1 %




2022- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,4 %** ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

112,3 %

2021- yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

131,3 %

2021- y. yanvar-iyun

325,1
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

265,8
mlrd. so'm

2022- y. yanvar-iyun

4,8 %

Umumi
hajmdagi ulushi

4,9 %

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **265,8 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumi hajmining **4,8 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
Yanvar-iyun



155,2 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2021- y.
Yanvar-iyun




121,3 mlrd. so'm

2,3 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi


2,2 %



115,8 %



O'sish sur'ati



143,6 %



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

 **Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



120,8 mlrd.
so'm

2021- y.
yanvar-iyun



172,7 mlrd.
so'm

2022- y.
yanvar-iyun



Xizmatlar
hajmi



114,7 %



121,3 %



O'sish
sur'ati



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **51,9** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- y.
Yanvar-iyun



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'� hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,8** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,7** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Namangan viloyati	6 827,7	116,0	117,5
Namangan sh.	2 806,9	122,7	117,7
tumanlar:			
Mingbuloq	251,9	110,8	121,1
Kosonsoy	348,5	113,3	121,0
Namangan t.	350,4	112,1	116,6
Norin	298,8	109,9	118,7
Pop	419,5	107,1	116,8
To'raqo'rg'on	438,7	111,3	110,1
Uychi	410,1	112,8	116,9
Uchqo'rg'on	322,9	111,2	116,3
Chortoq	372,4	112,6	119,5
Chust	463,8	116,9	118,8
Yangiqo'rg'on	343,8	110,4	117,6


2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-iyun oylarida)



2022- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – 41,1 % (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 39,9 %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – 3,7 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 3,7 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 318,3
ming so'm



Hajmning o'sishi

426,4 ming
so'mga

113,5 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 318,3** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021 - yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 891,9** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,1 %** da qayd etilgan.



2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

22 081
birlik

926
birlikka
o'sgan

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

104,4 %

4,2 %

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

Ularning umumiyl sonidagi ulushi




2022- yil yanvariyl

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,6** % ni tashkil etdi

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,0** % ga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00

